

TDIU. "Moliya" kafedrası  
i.f.n., dotsenti Imomov X.X.,  
TDIU. MGF-01 magistri F.F.Toxirov

## O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligidagi muammolar va yechimlar

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqining o'ziga xos xususiyatlari. O'zbekistonning Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorligidagi muammolar va yechimlarga qaratilgan maqsad va vazifalar. Shu bilan birga iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini tashkil etishni amalga oshirish usullari, chora-tadbirlarining holati va asosiy yo'nalishlari borasidagi masalalar keltirilgan.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются особенности Евразийского экономического союза Узбекистана. Цели и задачи, направленные на решение проблем сотрудничества Узбекистана с Евразийским Экономическим Союзом. В то же время представлены вопросы о состоянии и основных направлениях методов, мер по осуществлению организации отношений экономического сотрудничества.

**Annotation.** In this article, the specifics of the Eurasian Economic Union of Uzbekistan. Goals and objectives aimed at problems and solutions in Uzbekistan's cooperation with the Eurasian Economic Union. At the same time, issues related to the methods of implementation of the organization of economic cooperation relations, the state and main directions of measures are presented.

**Tayanch so'zlar:** xalqaro, iqtisodiy, tashkilot, yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi, kuzatuvchi, bojxona, energetika bozorini, yagona bojxona ittifoqini, siyosat, defitsit, profitsit, byudjet daromadlari; byudjet xarajatlari; kredit, davlat krediti; byudjet tizimi;; strategiya; integratsiya, halqaro munosabatlar.

**Ключевые слова:** международный, экономический, организация, Евразийский экономический союз, наблюдатель, таможня, энергетический рынок, единый Таможенный союз, политика, дефицит, профицит, доходы бюджета; расходы бюджета; кредит, государственный кредит; бюджетная система;; стратегия; интеграция, международные отношения.

**Base words:** international, economic, organization, Eurasian Economic Union, observer, customs, energy market, single customs union, policy, deficit, surplus, budget revenues; budget expenditures; credit, Public Credit; budget system;; strategy; integration, interrelated relations.

### Kirish



Mamlakatimizda hozirda ko‘plab xorijiy va mahalliy ekspertlarning qizg‘in muhokamalariga sabab bo‘layotgan masala bu O‘zbekistonning YeOIIga hamkorlik masalasi hisoblanadi. O‘zbekistonning YeOIIga hamkorlik masalasini tahlil qilish orqali, uni parallel ravishda JSTga a‘zolikka qo‘yilayotgan muhim qadami sifatida qarashimiz ham mumkin. Chunki milliy tovar-mahsulotlarimizni YeOII hududi bo‘ylab erkin sota olishimiz imkonining paydo bo‘lishi va yurtimizga a‘zo mamlakatlar mahsulotlarining erkin kirib kelishi raqobatbardoshligimizni oshirishga xizmat qiladi. Bunda monopol deb hisoblanadigan ayrim tarmoqlarning faoliyati ham xavf ostida qolish ehtimoli yo‘q emas.

Aslida bizda ham menejment va ishlab chiqarish jarayonlarini sifat jihatdan tubdan o‘zgartirish davri yetib kelgan. Bu kabi omillar o‘z-o‘zidan O‘zbekistonni JSTga a‘zo bo‘lishiga ham xizmat qilishiga asos bo‘ladi va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi bilan hamkorlikning O‘zbekiston moliya tizimiga o‘zini ijobiy natijalarida beradi.

Maqolamizning mavzui bo‘yicha adabiyotlar sharhida nazariy, amaliy hamda empirik adabiyotlarni tahlil qilish asosida mahalliy va xorijiy olimlarning ishlari, fikrlari va xulosalarini ko‘rib chiqdik.

**(Iqtisodiyot fanlari doktori, professor Nodir Jumaev)**

Hozirda O‘zbekiston va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi o‘rtasidagi munosabatlar atrofida turli-tuman gap-so‘zlar aytilmoqda. Bildirilayotgan fikr-mulohazalarni tahlil qiladigan bo‘lsak, ular “O‘zbekiston uchun Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi (EOII)ga a‘zo bo‘lish iqtisodiy va siyosiy jihatdan qanchalik manfaatli?” degan savolga javob topishga qaratilganiga guvoh bo‘lamiz.

**(S.Safoev)** 1992 — 2016 yillar mobaynida O‘zbekiston iqtisodiy rivojlanish konsepsiyasini yaratish bilan shug‘ullanmadi, haqiqiy bozor iqtisodiyotiga o‘tishni ta‘minlay olmadi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tishda xususiylashtirishni o‘tkazish va xususiy mulk xavfsizligini ta‘minlash kerak.

**(V.Shishkov)** Ko‘pgina iqtisodchilar YeOIIning Yevropa ittifoqiga o‘xshab samarali ittifoqqa aylanishi borasida shubha bildirib keladi. V. Shishkov bu tashkilotning integratsion

rejalarini soxta hisoblaydi, chunki amalda integratsion hodisadan ko'ra dezintegratsiyaga intilish [kuchliroq](#). Bu tashkilot integratsiyasining soxtaligi, avvalo, tovar oqimining statistikasida namoyon bo'ladi. Tovar ayirboshlash absolyut ifodaday ko'rinsa-da, amalda bu nisbiy qisqarib kelmoqda.

**(N.Pashinyan)** Armaniston hukumati rahbari bir necha bor qilgan ma'ruzalarida YeOIIning, xususan, Rossiyaning Armanistonga bosim o'tkazganini iddao qiladi. Bu, avvalo, energiya zaxiralarining Armanistonga yetkazib berilishi borasidagi narxlar haqida gap ketganda yuzaga chiqdi. Energiya ta'minotining Rossiyadan importi 80 foizni tashkil qilayotgan davrda bir necha marotaba gaz narxi borasida muzokara o'tkazgan.

**(K.Ernazarov)** Ushbu hamkorlik natijasida qo'shimcha ravishda qiymati 1,6 mlrd. AQSh dollariga teng mahsulotlarni eksport qilish, temir yo'lda tashish xarajatlarini 220 mln. AQSh dollariga arzonlashtirish hamda mehnat migrantlari daromadlarini 15-20 foizga oshirish imkoniyatlari paydo bo'ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi** - tadqiqot dizayni, ma'lumotlarni to'plash jarayoni, tahlil uchun qo'llaniladigan usullar, tadqiqotni o'tkazish uchun zarur shart-sharoitlar, tadqiqot jarayonida kutilayotgan muammolar va ularning yechimi, tadqiqotdan kutilayotgan ilmiy va amaliy natijalar kichik bo'limlarini o'z ichiga olgan.

### **Tahlil va natijalar muhokamasi (asosiy qism).**

O'zbekiston dunyoga ochilishi bilan dunyoning O'zbekistonga ochilish muammosi ham paydo bo'ldi. Mintaqaviy birlashmalarga kirishdan o'zini chetga oladigan, ammo shu bilan birga eksportni rivojlantirmoqchi bo'layotgan O'zbekiston double-landlocked, ya'ni o'zi ham, unga chegaradosh qo'shnilari ham dunyo okeaniga chiqa olmaydigan mamlakat sifatida YeOIIga kirishning musbat va manfiy jihatlari xususida bosh qotirmasdan iloji yo'q, chunki uning tashqi savdodagi taqchilligi (importning eksportdan ustunligi – defitsit) tobora ortib bormoqda.

Bir paytlar O'zbekiston bilan Tojikistonning turlicha tezlikdagi integratsiyasi va YeOIIDagi maxsus sherikchilikka asoslangan a'zoliqi haqida [so'z yuritilgan](#) bo'lsa, ayni damga kelib, to'liq a'zolik bilan bog'liq muzokara olib borilmoqda, yana bir muhim jihati shuki, O'zbekistonning Jahon savdo tashkilotiga (JST) kirishi bo'yicha ham muzokara



o'tkazilmoqda. Ikkala jarayon ham ma'lum vaqtni oladi, JSTga kirish vaqti esa anchaga cho'ziladi. O'zbekiston JSTga a'zo barcha mamlakatlar bilan muzokara o'tkazishi kerak bo'ladi. YeOIIga a'zo mamlakatlarning Belarusdan boshqa barchasi JST a'zosidir. Ayni paytda Belarus JST bilan faol muzokara olib bormoqda. YeOIIga esa 3 ta Yevropa mamlakati (Rossiya, Armaniston, Belarus) va 2 ta Markaziy Osiyo mamlakati (Qozog'iston, Qirg'iziston) a'zodir. O'zbekiston ham unga a'zo bo'lsa, ushbu mintaqaviy tashkilot hozirgidan ko'ra butunlay boshqacha ko'rinish kasb etadi. Lekin so'nggi yillarda YeIK va MDH Ijroiya qo'mitasi turli sohalarda, ayniqsa, mehnat migratsiyasi masalalarini muvofiqlashtirish sohasida faol hamkorlik qilmoqda. 2018 yil noyabr oyida YeIK va MDH Ijroiya qo'mitasi hamkorlikni chuqurlashtirish to'g'risida memorandum imzoladi.

Hozirgi kunda YeOII bilan MDHga a'zo boshqa davlatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalar 2011 yilda tashkil etilgan MDH Erkin savdo zonasi doirasidagi o'zaro imtiyozlar tizimi orqali amalga oshirilmoqda. MDHning YeOIIga a'zo bo'lmagan davlatlar bilan o'zaro hamkorlik qilish YeOIIning xalqaro faoliyatidagi ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

MDH mamlakatlari o'rtasida Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ukraina, Belarus va Tojikiston O'zbekistonning asosiy tashqi savdo sheriklari hisoblanadi va ular hissasiga tashqi savdo aylanmasining 31,0 foizi to'g'ri keladi. Boshqa mamlakatlar orasida esa Xitoy, Turkiya, Koreya Respublikasi, Germaniya, Afg'oniston, Yaponiya, Latviya, AQSh, Eron, Fransiya, Italiya bor va ularning jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 43,1 foizdir [2]). Garchi 2011 yilda O'zbekistonning tashqi savdosi ijobiy saldoga ega bo'lgan va u 3,6 milliard AQSh dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2018 yilda taqchilik 5,4 milliard AQSh dollariga yetdi. YeOII mamlakatlari bilan savdo-sotiqda ham shunday taqchilik kuzatilmoqda, faqat Qirg'iziston bilan profitsit mavjud.

Taqchilik yuzaga kelishining asosiy omillari paxta, gaz va oltin (ayniqsa, paxta) singari jahon bozorida oldi-berdi qilinadigan tovarlar eksporti pasayishi, mashinalar, uskunalar va boshqa tovarlar importi ortishi bilan bog'liq. Masalan, paxta xomashyosi eksporti 2010 yildan 2018 yilga qadar 1,5 milliard dollardan 222 million AQSh dollariga qadar qisqardi (lekin ushbu pasayishni 2016 yilda to'qimachilik mahsulotlari eksportining



2016 yilda 1,6 milliard dollarga qadar oshgani qopladi). Avtomobillar eksporti ham 2010 yildagi 715 million AQSh dollaridan 2018 yilga kelib, 214 million AQSh dollariga tushib qoldi. Mashinalar va uskunalarning importi esa 2010 yildagi 4 milliard dollardan 2018 yilga kelib 8 milliard AQSh dollaridan ortiq ko'rsatkichga chiqib ketdi. Umuman olganda, O'zbekistonning tashqi savdosi xomashyo eksportidan tovarlarning rang-barang to'plami tomon sezilarli tarzda o'zgarib bormoqda. Masalan, oziq-ovqat mahsulotlari bilan xizmatlar eksporti (transport xizmatlari va turizm) ortmoqda, bu o'rinda ham YeOII bozori asosiy rol o'ynamoqda.

YeOII va MDH mamlakatlariga eksport potentsiali, umuman olganda, to'liq amalga oshayotgani yo'q: 2018 yilda meva-sabzavot eksporti hajmi 874,5 million AQSh dollari bo'ldi (o'tgan yilga nisbatan 30 foiz oshdi), ularning asosiy qismi Qozog'iston bilan Rossiyaga jo'natildi – Qozog'iston 388 million AQSh dollarilik, Rossiya esa 164 million AQSh dollarilik meva-sabzavot sotib oldi. O'zbekistonning ushbu eksport hajmi fitosanitariya va veterinariya talablari sabab cheklangandir, chunki YeOII mamlakatlari (asosan, Qozog'iston) O'zbekistondan import qilingan mahsulotlarni qayta eksport qiladi. Ekspertlar fikricha, buning oqibatida O'zbekiston keragidan ko'ra 1 milliard AQSh dollari kam daromad olmoqda.

Boshqa misol tariqasida to'qimachilik mahsulotlarini olib ko'ramiz. 2018 yilning yanvar – dekabr oyilarida to'qimachilik mahsulotlari eksporti 1603,1 million AQSh dollari bo'ldi va 2017 yilning shu davriga nisbatan 41,4 foiz oshdi. To'qimachilik mahsulotlari eksporti strukturasi asosiy ulushni paxtadan yigirilgan ip (45,3 foiz), shuningdek, tayyor trikotaj va tikuv buyumlari (36,5 foiz) tashkil etdi. Bu borada Rossiya O'zbekistonning asosiy sherigi bo'lib, 640 million AQSh dollarilik, Qozoziston bilan Qirg'iziston esa birgalikda 300 million AQSh dollarilik zikr etilgan tovarlarni sotib oldi.

Avtomobillarni tashqarigisha sotish ham O'zbekistonning xomashyo bilan bog'liq bo'lmagan eksporti uchun YeOII mintaqaviy bozori qanchalik muhim ekanini ko'rsatuvchi misoldir. O'zbekistonda avtomobil ishlab chiqarish deyarli 200 ming kishini ish bilan ta'minlaydi, u boshqa sohalarga multiplikativ – samaradorlikni ko'p marta oshiradigan ta'sir ko'rsatadi. Biroq 2011 yilda jami eksportning 6,6 foizini tashkil qilgan mashinalar eksporti

YeOII joriy qilgan texnik talablardan so'ng muvaffaqiyatsizlikka uchradi va 2018 yilga kelib, jami eksportning 1,5 foiziga qadar tushib ketdi.

Garchi hozirgi paytda avtomobillar ishlab chiqarish ichki bozorga yo'naltirilgan bo'lsa-da, davlat avtomobil eksportini yiliga 100 000 taga yetkazishni reja qilib belgilab berdi. Ushbu vazifani muvaffaqiyatli bajarishning birdan-bir yo'li eng yaqin qo'shnilarning bozoriga chiqishdir. O'zbekiston YeOII bozoriga qirish uchun avtomobillarni Qozog'istonda yig'a boshladi. Respublika ushbu hududiy tashkilotga a'zo bo'lgandan so'ng bozorga bemalol kirib borishi mumkin, u yerda hamyonbop avtomobillarga bo'lgan talab katta.

Rossiyada 2–3 million o'zbek mehnat qilmoqda. Bu O'zbekiston yoshlarining ancha-muncha qismini tashkil qiladi, ayrim hisob-kitoblarga qaraganda, har uch o'zbek yigitining bir nafari mehnat migrantidir. YeOIIga a'zo mamlakatlarga taklif etilayotgan erkinliklardan biri mehnatkashlar oqimi erkinligidir. Ayni damda O'zbekistondan Rossiyaga va YeOIIning boshqa mamlakatlariga borib ishlayotgan mehnat migrantlarining aniq sonini hisoblab chiqish qiyin, chunki ular rasmiy mehnat migrantlari sifatida ro'yxatdan o'tmagan, tegishli huquqqa ham ega emas, tibbiy yordam ham ola bilmaydi, bundan faqat pensiya olish mustasno.

So'nggi yillarda Rossiyadan O'zbekistonga jo'natilayotgan pul ko'chirmalari pasayib ketdi, ammo 2014 – 2015 yillardagi keskin pasayishga Rossiya rublining AQSh dollariga nisbatan qadri qo'qqisdan tushib ketishi sabab bo'lgan edi. 2016 – 2017 yillarga kelib, jo'natmalar hajmi bir oz ko'tarilib, 2,6 milliard AQSh dollariga yetdi, nima bo'lganda ham, bu O'zbekiston iqtisodiyotiga jiddiy quyilmadir.

Qirg'izistonning YeOIIga a'zoliigi mehnat migrantlariga ko'plab imtiyozlar beryapti, ular rasmiy maqom olyapti va soliq to'lashga imkoniga ham ega bo'lyapti. Hozirgi kunda Rossiya parlamentida migrantlar uchun daromad solig'i stavkasini 30 foizdan 13 foizgacha kamaytirish haqidagi qonun loyihasi muhokama qilinyapti. Bundan maqsad soliq to'lash va rasman ishlashga rag'batni oshirishdir.

## Xulosa va takliflar



Umuman olganda, xomashyoga bog'liq bo'lmagan eksporti rivojlangan, ishlab chiqarishni joylashtirish va bevosita investitsiyalar jalb qilish potentsiali yuqori bo'lgan O'zbekiston uchun YeOIIga kirishdan keladigan iqtisodiy imtiyozlarga ega bo'lish imkoniyati Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlariga nisbatan yuqori bo'lsa-da, mamlakatning tanlov imkoniyati cheklangani ham kunday ravshan: iqtisodiyoti yangi yo'lga chiqib olishi kerak, buhronga qarshi kurashish bo'yicha qabul qilinadigan qarorlar ro'yxati unchalik uzun emas.

O'zbekistonning YeOIIga nazarda tutilayotgan a'zo bo'lib kirishi mamlakatning o'zida ham, undan tashqarida ham, siyosiy a'zolikka mengzalib, qo'rquv uyg'otmoqda. O'zbekiston Ukrainaning o'rniga YeOIIning tutib turuvchi bloki bo'lib, birlashmaning muvaqqat ekani xususidagi kutilmalarga barham berib, uni yanada real va ta'sir kuchiga ega tashkilotga aylantira oladimi? Toshkentning «evroosiyochilik» va uning qadriyatlariga qo'shilishi nimani anglatadi? Ko'pyillik izolyatsiyadan so'ng O'zbekiston siyosatining yo'nalishi nega o'zgaryapti va bu mustaqillikni yo'qotishni anglatadimi?

Ammo ko'pchilik ekspertlar hozirgi paytda YeOIIida integratsiyani chuqurlashtirish va kengaytirish istiqbollari qorong'iligicha qolmoqda. Rossiyadan boshqa a'zolari anchadan beri ham siyosiy, ham moliyaviy sohadagi integratsion hamkorlikni chuqurlashtirish imkoniyatiga muvaffaqiyatli va prinsipial jihatdan qarshi turib kelyapti.

Garchi YeOII Yevropa Ittifoqiga o'xshash tuzilma bo'la olmagan bo'lsa-da, bojxona tarifini yuksak daraja uyg'unlashtira olishi bilan chindan ham ishlayotgan bojxona ittifoqiga aylandi. Tashkilot ichidagi erkin savdo me'yorlari YeOII a'zolarining huquq va manfaatlarini muhokama qilishida muayyan erkinliklarni belgilab berdi. Shunday qilib, mamlakatlar savdo bilan bog'liq masalalarini muhokama qilish uchun platformaga ega bo'ldi, Rossiya esa, Libmanning fikricha, «EOII tarkibidagi kichik mamlakatlarga «yon berish»ga tayyor, chunki ushbu mamlakat rahbariyati uchun YeOII mavjudligi muhim maqsad hisoblanadi. Boshqacha aytganda, Rossiya YeOIIning u yoki bu qarorlariga jug'rofiy-siyosiy mojarolar prizmasi orqali qaramayotgan paytda uni qo'llab-quvvatlash zaruratini shu darajada yuqori baholaydiki, YeOOIdagi konsensus – o'zaro murosaga asoslangan holda qarorlar qabul qilish tartibi amal qilishini dastaklashga tayyor».



Boshqa tarafdin olib qaraganda. O'zbekiston va hatto Tojikiston (O'zbekiston kirgandan so'ng Tojikistonga kirish-kirmaslik tanloviga imkon qolmaydi hisob) a'zo bo'lib kirgandan so'ng YeOII Yevropadan ko'ra ko'proq Osiyo tuzilmasi bo'lib qolishi, Markaziy Osiyodagi ishtirokchi mamlakatlar samarali tarzda «ittifoq ichida ittifoq» tuzishi mumkin. Albatta, markaziy Osiyodagi integratsiya sabablari va dastlabki shartlari Yevroosiyo mintaqasidagi integratsiyani belgilovchi sabab va shartlardan farq qiladi. Lekin bu ikkala model o'zaro butunlay mos kelmasligini anglatmaydi. YeOII ichida Markaziy Osiyo blokining paydo bo'lishi integratsiya vazifalarini to'g'ri belgilab olish demakdir, lekin bu dastlab blok shakllanishini kerakligini anglatadi, shundan so'nggina, ayni blok istalgan yirikroq birlashmalarda, ayniqsa, YeOII singari butun qit'aga cho'zilib ketgan, jug'rofiy-siyosiy nuqtai nazardan yuki o'ta og'ir, hozircha esa qanaqa tuzilma ekani unchalik aniq bo'lmagan tashkilotda ishtirok etishi mumkin».

Yana qo'shimcha qilib shuni aytish mumkinki, Markaziy Osiyo mintaqasidagi hamkorlik ayni paytda juda sust rivojlanmoqda. Markaziy Osiyo bahoriga oid kutilmalarga qaramay, beshta davlat yetakchilarining muammolarni inqilobiy yo'l bilan hal etishga qaratilgan sammiti hali ham o'tkazilmadi. Ehtimol, «evroosiyo-chilik» sari qadam qo'yishga faqat iqtisodiy muammolar sabab bo'layotgandir va O'zbekiston, xuddi Qozog'iston ham YeOII bilan munosabatlarini G'arb mamlakatlari va Xitoy bilan muvozanatda saqlashga harakat qilayotganday, tashqi siyosatini keskin o'zgartirmas.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 20.12.2022. "Halq so'zi" gazetasi. 21.12.2022 -1 b.
3. Бабушкин, Алексей. Uzbek Official Pours Soldier on Sustoms Union Membership". PIA Новости (13-ноябр 2013-йил). 1-сентябр
4. Malikov T.S., Olimjonov O. Moliya. Darslik. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2019.-969 b.
5. www.lex.uz– O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2023 y.
6. Nuriddinova V.Sh., Sharapova M.A. Moliyaviy nazorat. O'quv qo'llanma. T.: Iqtisodiyot-Moliya. 2014. -344